

Jahon kimyo sanoati xabarlari: havodan ammiak

// 25.11.2024

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/jahon-kimyo-sanoati-xabarlari-havodan-ammiak>



Niderlandiyaning Koppert Cress ferma xo'jaligi havo va elektr energiyasidan maxsus jihozlar yordamida olingan ammiakdan mineral o'g'it sifatida foydalanishni boshladi.

Innovatsion uskuna Daniyaning ammiak olishning muqobil jarayonlarni ishlab chiquvchi NitroVolt startapi tomonidan yaratilgan.

Patentlangan texnologiya litiydan foydalangan holda ushbu birikmani sintez qilish jarayoniga asoslangan. Ishlab chiqarish uchun faqat havo, suv va elektr energiyasi talab qilinadi. Mobil uskuna kuniga taxminan 5 kg ammiak ishlab chiqarish imkonini beradi. Olingan mahsulot o'g'it sifatida ishlatiladi va uskunalar tomonidan ishlab chiqarilgan issiqlik issiqxonalarni isitish uchun sarflanadi.

Kompaniya loyihani moliyalashtirish uchun 2,75 million yevro jalb qildi. NitroVolt asoschilarining ta'kidlashicha, agar fermerlar qayta tiklanuvchi energiya manbalariga ega bo'lsalar, ular tayyor o'g'itlarni sotib olish uchun to'laydigan narx bilan taqqoslanadigan narxda ammiak olishlari mumkin.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati